

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 yil «15» Dekabr

Yangibozor tumani

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan "Yangibozor tumani 1-son kasb-hunar maktabi" nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari N.Miskmova bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "Xorazm Fayz Qurilish" X/K nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari M.Matkarimov maskur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi; -ijro xujjatlari– naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishiarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma buyicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab quyiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatinianiq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan loyixa buyicha ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (2022yil «13» dekabrda bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yigimlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda jami QQS bilan (Bir yuz qirq uch million yetti yuz qirq bir ming to'rt yuz oltmish) so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati o'zil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma buyicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachilga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushlirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar to'zilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish buyicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroklari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- mazkur shartnoma buyicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
- qurilish maydoni quriklanishini ta'minlash;
- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma to'zadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishiarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrga dalolatnoma buyicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishiarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ruyxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi

15. Ob'ektni 2021yil 30 dekabrda foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu **43122438** so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishiarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xak to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-faqturani» o'zi to'zib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvdan so'ng Pudratchi tomonidan to'ziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo cheqiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faqtura» asos bo'ladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'k qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlashi uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini kupaytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda to'zata olmasa, Pudratchi ularni to'zatishtirish kechigishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni Qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tug'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan konikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalar va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlar natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlar amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yo'zaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlar yoki ularning oqibatlar bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni qonservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

XI. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifati;- o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qonstruksiya va tizimlar sifati, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddati ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XII. SHARTNOMANI BEKORQILISH.

35. Buyurtmachi:- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

-ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

-Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

-ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib ko'yilganda;

-Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar buyicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xukukiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan takdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l quyilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 may 2021 yildagi PF-321 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 395 sonli qarori bilan, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar buladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma buyicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch bank kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali buyicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, qorxona atamasi yoki maqominin notug'ri bersa va o'zgarganligi to'grisidagi ma'lumotni uch qalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.
46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulaydigan neustoyka, afvapenyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.
47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, uxolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar urtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yuqotadi.
50. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.
51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.
52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'g'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi konun xujjatlari ko'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanib Budjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 3 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

Хоразм фаяз қурилари К/К.	Хоразм вилояти Янгибозор таъминот-сав қасб-ҳуқор мактаби.
Хува Телон соот қиш.	Манзил: Ботолон, маҳалла.
+99891. 998 26 22	ШХР: 100010860332364092901079001
20208000000371168001	Т/Н/Н: 206931224 СКОХХ: 85310
303004079	Тел: 97-362-83-18
ДХБҚК АТБ. Хува	Молла Бахриддин Розматшиев
00578	ХР: 23402000300100001010
	Марнаш Банк Таш. ШХКМ.
	Идр: 00014
	Тел: 201122918.



М. Мотиналов



И. Мусинова

Мас'ул шахс: А. Джиғанов

YURIST KONSULT
M. ATABAYEV

М. Атабаев